

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2023 Vol. 2 (1)

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari: Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib: Dilafruz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Baxronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Manzura Shamsiyeva, Gavhar Komilova, Kamola Rixsiyeva, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Mushtariy Xolmurodova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Jurnal haqida ma'lumot

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

“Lingvistika” Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'y-xatidagi “O'zbekiston: til va madaniyat” jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. “Lingvistika” seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

“Lingvistika” seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief: Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief: Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary: Dilafruz Muhammadieva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbayev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Bakhronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Manzura Shamsiyeva, Gavhar Komilova, Kamola Rikhsiyeva, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Mushtariy Kholmuradova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Nadir Jorakoziyev.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors’ ideas may differ from those of the editors’.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.linguistics.tsuull.uz

Personaj lisoniy shaxsida yosh xususiyatlarining namoyon bo'lishi

Marhabo Umurzoqova¹

Abstrakt

Badiiy matnda personaj lisoniy shaxsini shakllantirishda uning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish muhim sanaladi. Personaj nutqida qo'llanilgan leksik birlik, gap qurilishidagi o'ziga xoslik orqali uning yoshi, millati, kasb-kori haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Yozuvchi personajlar nutqi vositasida ularning dunyoqarashi, ma'naviyati, olamni anglashi haqida ma'lumot beradilar. Bunda ularning kuzatuvchanligi, tilning ifoda imkoniyatlaridan foydalana olishlari muhim sanaladi. Badiiy asarda personajning yoshi muallif tomonidan izohlanmay lisoniy vositalar orqali namoyon bo'lishi ijodkorning mahoratidan dalolat beradi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, badiiy asarda yosh bolalarning lisoniy shaxsi ko'p hollarda fonetik vositalar, o'spirin lisoniy shaxsi adabiy qatlamga mansub bo'lmagan leksik birliklar, qariyalar nutqi pand-nasihat mazmunidagi birliklardan tashkil topadi. Maqolada lisoniy shaxslarning voqelanishida yosh xususiyatlarining o'rne masalasiga e'tibor qaratilgan, ularning sotsiopragmatik xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *lisoniy shaxs, pragmatik to'siq, ijtimoiy rol, ijtimoiy maqom, chet so'zlar, qariya nutqi.*

KIRISH

Lisoniy shaxs tushunchasi tilshunoslikda antroposentrik paradigmaning yuzaga kelishi bilan shakllangan yangi yo'nalishlarning o'rganish obyekti sifatida paydo bo'lgan. Tildan foydalanuvchi shaxsning yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqeyi, ijtimoiy roli uning nutqiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bir lisoniy shaxs bir paytning o'zida turli ijtimoiy maqomda va rolda bo'lishi mumkin. Shu ijtimoiy rol kommunikativ akti amalga oshirishda turli taktikalarni qo'llashiga, pragmatik maqsadiga mos birliklarni tanlashiga sabab bo'ladi.

¹ *Umurzoqova Marhabo Egamberdiyevna* –filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti

E-pochta: umurzakovamarkhabo@gmail.com

ORCID ID : 0000-0001-5658-789X

Iqtibos uchun: Umurzoqova, M.E. 2023. "Personaj lisoniy shaxsida yosh xususiyatlarining namoyon bo'lishi". *O'zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2023-2: 36-43.

Tilshunoslikning nisbatan yangi sohasi hisoblangan lingvopersonologiya so'zlovchining turli ruhiy holatidagi nutqining o'ziga xos xususiyatlari tadqiqini ham o'rganadi. "Til isoniy his-tuyg'ularni ifodalashning eng samarali usullaridan biridir. U shunday xususiyatga ega bo'lganligi uchun ham o'quvchining his-tuyg'ularini "boshqara oladi" – uning qalbida turli kechinmalar, hissiyotlarni paydo qiladi"[Xudoyberganova 2013, 63]. Yozuvchining mahorati his-tuyg'ulari turlicha, dunyoqarashi xilma-xil, olamni o'ziga xos tarzda anglaydigan hamda baholaydigan turli toifadagi shaxslarni lisoniy shaxs darajasida ko'rsatib bera olishida ko'rinadi. A.Qahhorning "Bemor" hikoyasidagi onasining dardiga chuchuk tili bilan shifo so'ragan qizcha lisoniy shaxsi o'zbek hikoyachiligida yosh xususiyatlarini yorqin namoyon qilgan personaj sifatida eslanadi. Yozuvchining tildan foydalanish mahorati qahramonlarining lisoniy shaxshini shakllantira olishida, ularning o'ziga xosligini ko'rsatib bera olishida ko'rinadi. Zero, badiiy matn "Insonni ruhan to'lqinlantirish, yig'latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o'yga cho'mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nigoh bilan boqishga o'rgatish kabi imkoniyatlarni o'zida mujassam qilgan bo'ladi" [Yo'ldoshev 2009,104].

Asosiy qism

Lisoniy shaxsni har tomonlama o'rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biridir. Lisoniy shaxsning voqelanishida uning sotsial xoslanishi muhim sanaladi, shu boisdan shu xoslanishning nuqtaiy muloqot jarayonida namoyon bo'lishi, integratsiyalashuviga e'tibor qaratish lozim. Lingvopersonologiya so'zlovchining turli ruhiy holatidagi nutqining o'ziga xos xususiyatlari tadqiqini ham o'rganadi. Badiiy matnda dunyoqarashi rang-barang, olamni o'zicha anglaydigan hamda baholaydigan, turli his-tuyg'ularga ega, har xil toifadagi shaxslarni lisoniy shaxs darajasida ko'rsatib bera olish yozuvchining mahoratiga bog'liq. Til insonning intellektual salohiyatini aks ettiradi, ammo har qanday lisoniy shaxsning intellektual darajasi uning tildan qay darajada foydalanishi bilan belgilanmasligi Y.Karaulov tomonidan qayd etilgan edi [Karaulov 2010, 35].

Shaxsning ijtimoiy roli, muloqotni amalga oshiruvchi shaxs sifatidagi o'rni sotsiologiya va psixologiya nuqtayi nazaridan o'rganilgan. Ayni shu ijtimoiy mavqeyi uning kommunikativ jarayonda pragmatik maqsadni amalga oshirishda muhimligi, ma'lum bir pragmatik maqsadning amalga oshishida ijtimoiy rollarning o'rni masalasi biroz e'tibordan qolgan masalalardan biridir.

Lisoniy shaxsni uning ijtimoiy roli bilan bog'lab o'rganish,

lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'lishini ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqib baholash lisoniy shaxs haqidagi qarashlarni kengaytiradi, lisoniy shaxsning ijtimoiy maqomidan kelib chiqib til birliklaridan qay tarzda foydalana olishi haqidagi tasavvurlarni hosil qilishda, ularni tipologik jihatdan tasnif qilishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Publisistik diskursda lisoniy shaxsning voqelanishi haqida so'z yuritar ekan, tadqiqotchilar yoshlar radiokanalining boshlovchisi yoshlar nutqiga xos slenglar va oddiy so'zlashuvga xos shakllardan foydalanishini uning faol so'zlashuv leksikasi shunday so'zlardan iborat ekanligini belgilamasligini, uning obrazi, ijtimoiy roli shunday so'zlardan foydalanish shartligini taqozo qilishini qayd etadilar [Гайбарян, Мясичев 2016, 66] Shaxsning ijtimoiy roli muloqot jarayonida til birliklaridan qay darajada foydalanish lozimligini belgilab beradi. Adresantning til birliklaridan foydalana olish malakasi esa bevosita uning mental o'ziga xosligi, aqliy salohiyati, yosh xususiyatlari bilan belgilanadi. Muloqot jarayonida uning har bir ishtirokchisi ma'lum ijtimoiy rolni o'ynaydi. Tabiiyki, uning lisoniy shaxs sifatida namoyon bo'lishi nutqiy muloqot jarayonidagi ijtimoiy roli bilan belgilanadi. Keksa yoshli erkak bir paytning o'zida ziyoli qatlamga mansub nuroniy inson rolini ham, kasalmand qariya rolida ham bo'lishi mumkin. Ziyoli qariya rolida bo'lganda uning nutqida arabiy so'zlar, xususan, *oxirat*, *gunoh*, *tavba*, *namoz*, *ro'za* kabi leksik birliklar, kasalmand qariya rolida bo'lganida esa hayotdan norozilik, dunyoning o'tkinchiligidan nolishni ifodalaydigan birliklar qo'llanilishini kuzatish mumkin.

Badiiy matnda lisoniy shaxsning voqelanishida personajlarning yosh va jins xususiyatlari muhim rol o'ynaydi. Mahoratli yozuvchilar qahramonining nutqini shakllantirishda shu jihatlarni hisobga olsa, badiiy asar tilining ishonarli, ta'sirli, yuqimli chiqishiga erishadilar. Lisoniy shaxs tushunchasi tilshunoslikda paydo bo'lgan davrdan boshlab bu borada qator ishlar amalga oshirildi. Tilshunoslikda badiiy diskursda lisoniy shaxs tiplarini aniqlashga doir alohida tadqiqotlar ham yuzaga keldi. Bu tadqiqotlarda u yoki bu ijodkorning asarlari misolida lisoniy shaxs tiplarini yaratishdagi mahorati tadqiq qilindi. Badiiy matnda muallif hikoyachi va personaj nutqini ajratish muhim sanaladi. Rus tili materiallari asosida lisoniy shaxs tiplari haqida fikr yuritar ekan, Y.Karaulov muallif hikoyachi nutqidan personaj nutqiga o'tishning bir usuli sifatida kirish so'zlardan foydalanishni tahlillar asosida ko'rsatib beradi [Капайлов 2010, 73].

Nutq jarayonida muloqotga kirishuvchi shaxslarning yoshiga ko'ra farqlanishi ham o'ziga xos lisoniy birliklar orqali namoyon

bo'ladi. "Umrning turli davridagi kishilar nutqi orasida tafovut katta. 18-25 yoshdagi kishilar bilan 30-50 va undan katta yoshdagi kishilarning nutqi anchagina farqlanadi. Masalan, 18-25 yoshdagi kishilar nutqida jargon, argo, vulgarizm, olinma so'zlar tez-tez qo'llanilishining guvohi bo'lamiz"[Раупова 2012, 17] Tabiiyki, yozuvchi personajlarning lisoniy shaxsini shakllantirishda shu jihatlarni ham e'tiborga olishi muhim sanaladi. *Lekin ilojim yo'q. Attestatni yaxshilab narxozga bormasam, batkam kallamni oladi. Men attestatni yaxshilasam bas, qolgani batkamning ishi. Batkamni bilasan-ku, boss?* (T.Malik). Keltirilgan matndan lisoniy shaxs maktabni bitirish arafasida turgan o'spirin ekanligi anglashiladi. Uning nutqida qo'llanilgan – *attestat, narxoz, batka* leksemalari uning nutqini individuallashtirish bilan birga shu yoshdagi shaxslarning lisoniy qiyofasini ham namoyon etadi. Ko'p hollarda badiiy matnda lisoniy shaxsni shakllantirishda leksik birliklarga e'tibor qaratiladi, morfologik va sintaktik birliklar esa e'tibordan chetda qoladi. *Vey, boss, senga gap yoqmaydigan bo'lib qolibdi. Men seni geografiya bilan yarashtiraman. Sen kampingga aytib qo'y, meni ko'p qiynamasin. Tenglama-teoremalariga bari bir aqlim yetmaydi. Mening kelajagim tayin: karra jadvalini bilsam bo'lgani, nima qiladi boshimni qotirib* (T.Malik). Keltirilgan parchada o'spirin nutqida morfologik shakllarning adabiy tilga muvofiq qo'llanilganligi to'laqonli lisoniy shaxsning namoyon bo'lishiga xalaqit bergan. *Men olmoshi so'zlashuv nutqida man, sen olmoshi san, qaratqich kelishigi shakli o'rnida tushum kelishigi qo'llanilganda maqsadga muvofiq bo'lar edi. Quyidagi misolda esa pivo sotuvchi yigitning lisoniy qiyofasi uning yosh xususiyatlarini to'la aks ettirgan. Uning nutqida qo'llanilgan har bir leksema va morfologik shakllar uning lisoniy shaxs sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib bergan. Pivo sop bo'ldi, okam, buyog'ini tortib qo'yishgan. Ertaga vohliroq kelas, – dedi yuzlari bo'g'riqib qizarib turgan yigitcha* (T.Malik). So'zlovchining tinglovchiga *okam* deb murojaat qilishi uning ijtimoiy maqomi haqida ham ma'lumot beradi. Ya'ni, muloqotga kirishayotgan so'zlovchi yosh jihatidan tinglovchidan katta, erkak jinsiga mansub.

Bilib qo'y: bashkangni yo'qotma. O'zingga qiyin. Meni hech qanday qarmoq ilintira olmaydi. (T.Malik). Keltirilgan matnda *bashka* so'zi axloq yuzatish kolonniyasida bo'lib qaytgan shaxsning nutqida qo'llanilgan. Yozuvchi uning nutqining o'ziga xosligini berishda chet so'zlardan foydalangan. *Senga bir maslahat aytay: anavi marjaga uylan, yaxshi ko'rmasang ham uylan. Uning yuragi yarimta. Uylangin-u, ammo burningdan ip o'tkazib olishiga yo'l qo'yma* (T.Malik) "Tilning lug'at tarkibiga kiritilmagan, faqatgina og'zaki

nutqda mavjud bunday chet soʻzlaridan badiiy nutqda kommunikativ xarakteri, sotsial mansubligi va ichki dunyosi tasvirida hamda voqea-hodisaning xorijga xosligini taʼkidlash maqsadida foydalaniladi” [Раупова 2012, 17]

Haligi gapimni unutma. Uyingdan chiqib ket. Otang podles odam, u bilan yashab boʻlmaydi. Oʻpkangni bos, bratishka. Yaxshini yaxshi deyish kerak ekan, podlesni podles. Xohlasang, otangning podlesligini isbotlab beraman (T.Malik). Keltirilgan matnda soʻzlovchi yosh jihatidan tinglovchidan katta, shu sababli oʻzining kattaligini, aqli unikidan koʻpligini taʼkidlash maqsadida *bratishka* murojaatini qoʻllaydi. Bu oʻrinda soʻzlovchining pragmatik maqsadi oʻzining kimligini taʼkidlash bilan birga, tinglovchini oʻziga yaqin olish, uni begona sanamasligini koʻrsatish ham, shu sababli *bratishka* soʻziga ikkita vazifa yuklangan. *Podles* soʻzi orqali esa uning maʼnaviy qiyofasi ochib berilgan, tinglovchining otasiga nisbatan baho munosabatini ifodalagan.

Personajlar nutqida adabiy tilga mansub birliklar boshqa maʼnolarda qoʻllanilib, ijtimoiy jihatdan xoslikni ifodalashga xizmat qiladi. “Shuningdek, ular matnga voqealar boʻlib oʻtgan oʻringa ishora qilish yoki nutqiy vaziyat va unda ishtirok etayotganlarning sotsial mansubligi haqida maʼlumot berish istagi bilan ham kiritilishi mumkin” [Раупова 2012, 17]. *Sen maktabda professor boʻlsang, men uyoqda... – Qamariddin barmoqlarini panjara qilib koʻrsatdi, – akademik boʻlib kelganman. Omon qolaman, desang, mendan uzoqlashma* (T.Malik). Keltirilgan matnda qoʻllanilgan professor va akademik soʻzlari soʻzlovchining pragmatik maqsadiga mos ravishda tanlangan. Soʻzlovchining mening bu olam, yaʼni jinoyat olami haqida bilimlarim senikidan koʻp degan maʼno anglashiladi.

Kommunikativ muloqot jarayonida soʻzlovchi nutqiy xatti-harakatlarning mavjud modelini amalga oshiradigan, shu til egalari tasavvurida mavjud lisoniy shaxs tipini oʻzida mujassam etgan va uni butun jamiyat yoki maʼlum bir ijtimoiy guruh sifatida idrok etish imkonini beradigan til egasi sifatida namoyon boʻladi.

“Tilni oʻzlashtirgan bola dunyoni ilmiy, kontseptual jihatdan anglamaydi, balki uni lingvistik darajada idrok etadi, yaʼni dunyo haqidagi sodda gʻoyaning shakllanishi sodir boʻlgan darajada oʻzlashtiradi” [Шкуропацкая, Даваа Ундарма 2015, 81]. Shuning uchun ham badiiy matnda bola lisoniy shaxsni shunday sodda darajada berish, pragmatik maqsadni bolalarcha sodda boʻlishiga erishish matnning ishonarli chiqishida yordam beradi. – *Dada, ayam ovqat pishiymani, biz quyuq non yeb oʻtiribmiz, – ostonada oʻtirib olib shisha qopqoqlarini “chika-pika” deya oʻynab oʻtirgan ogʻli darvozadan*

kirib kelgan Akbarga shikoyat qildi.

– Nega endi qilmas ekan?

– Go'shsiz qilmayman, deydi. Kartoshka joniga tegibdi. Go'sh obkeb beysangiz bo'lmaydimi? – kattalardek gapirdi bolakay (U.Hamdami)

Keltirilgan matnda lisoniy shaxs nutqida fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar qo'llangan. Kichik yoshdagi bola tomonidan hosil qilingan ushbu nutq parchasida "r" tovushining talaffuzi orfoepik me'yorga muvofiq emas. Bunday holat muloqot jarayonida kommunikativ-pragmatik to'siqni yuzaga keltirib, tinglovchi tomonidan nutqiy aktda aks etgan propozitsiyaning idrok etilishi qiyinlashtiradi. Yozuvchi bola lisoniy shaxsini shakllantirishda yozuvchi bolalar nutqiga xos bo'lgan "r" tovushini ayta olmaslik hodisasidan unumli foydalangan. *Pishiymani, quyuyuq, obkeb beysangiz* tarzidagi bu qo'llanish nutqegasining yoshi haqida tasavvur uyg'otadi. Asosan, kichik yoshdagi bolalar nutqida kuzatiladigan bunday fonetik o'zgarishlar kattalarda kulgi, bola nutqidan zavqlanish kabi his-tuyg'ularni uyg'otishi bilan lingvopersonologik ahamiyatga ega.

Ba'zan badiiy asarda personajning so'z qo'llashidan uning necha yoshligini aniqlash qiyin. Quyidagi matnga e'tibor beraylik: *Tag'in o'zimni bosdim. Ichkinam kuyib uyga qaytdim. Izimdan qo'chqor yetaklab ulim keldi. Gapirsam, irshayadi degin. Ursam – kam, so'ksam, yana kam. Kel, bolam, senga olishni o'rgatay dedim. Tag'in irshayadi. Belidan oldim. Ulim polvon deb kerilib yurgan ekanman-u, buzilganidan bexabar qopman* (N.Norqobilov). O'g'lining qo'chqor yetaklab kelishi, kurash tushishi haqidagi so'zlardan so'zlovchining 40-50 yoshlarda ekanligini taxmin qilish mumkin. *Kurash, kerilib yurmoq* leksemalari uning erkak ekanligiga ishora qiladi. Ammo so'zlovchi ayol. Qonida polvonlar qoni bor, o'zi ham kurashib yengilmagan ayol. Bu o'rinda kurashda halollikni muhim deb bilgan, g'irromlikni, qing'ir yo'l bilan kurashda g'olib bo'lishni uyat deb biladigan ayol lisoniy shaxsi gavdalantirilgan. Demak, leksik vositalar har doim ham lisoniy shaxsning yosh va jins xususiyatlariga ishora qilmaydi. Lisoniy shaxsning voqelanishida kommunikantlarning hududiy jihatdan mansubligi, yashash tarzi, urf-odatlar ham muhim sanaladi.

Xulosa

Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, badiiy asarlarda bolalar, yoshlar va qariyalar lisoniy shaxsini shakllantirishda yozuvchilarning fonetik, leksik vositalardan unumli foydalanganligini ko'rishimiz mumkin. Yoshlar nutqida jargon va argolar, vulgarizmlar, varvarizmlar, ekzotizm, okkazionalizmlar ko'proq uchraydi,

shuningdek, gapning sintaktik qurilishida o'ziga xoslikni ham ko'rishimiz mumkin. Asosan sodda va to'liqsiz gaplar ular nutqida faol bo'lib, boshqa til elementlaridan ko'p foydalanadilar. Sintaktik qoliplarning qisqa ekanligi bilan xarakterlidir.

Adabiyotlar

- Гайбарян, О., Мясищев, Г. 2016. *Роль фактора «Социальная роль» при описании языковой личности // В мире искусства: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии.* №2 (57).
- Йўлдошев, М. 2009. *Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи.* Филол. фан.док.дисс. Тошкент.
- Караулов, Ю. Н. 2010. *Русский язык и языковая личность.* М.
- Раупова, Л. 2012. *Диалог дискурсаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи.* Фил. фан. док. дисс. автореф. Тошкент.
- Umurzakova, M. 2022. *The age factor in the formation a linguistic personality.* Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. Ussue 05, May 2022.
- Худойберганова, Д. 2013. *Матнинг антропоцентрик тадқиқи.* Тошкент.
- Шкуропацкая М.Г., Даваа Ундарма. 2015. *Национальная языковая картина мира как компонент языкового сознания русской и монгольской языковой личности (сопоставительный аспект) // Вестник Томского государственного университета. Филология.* №1(39).

Appearance of age characteristics in the linguistic personality of the character

Markhabo Umurzakova¹

Abstract

It is important to take into account the character's age characteristics in the formation of the character's linguistic identity in the literary text. It is possible to form an idea about the character's age, nationality, and profession through the lexical unit used in the character's speech and the uniqueness of the construction of the sentence. Writers provide information about their worldview, spirituality, understanding of the world through the speech of the characters. It is important for

¹ *Markhabo E. Umurzakova* - Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

E-mail: umurzakovamarkhabo@gmail.com

ORCID ID : 0000-0001-5658-789X

For citation: Umurzakova, E. M. 2023. "Appearance of age characteristics in the linguistic personality of the character". *Uzbekistan: language and culture. Linguistics.* 2023-2: 36-43.

them to be observant, to be able to use the expressive possibilities of the language. The fact that the age of the character in the work of art is expressed through linguistic means without being explained by the author is an indication of the artist's skill. Our observations have shown that the linguistic identity of young children in the literary work is often made up of phonetic devices, the linguistic identity of teenagers consists of lexical units that do not belong to the literary layer, and the speech of the elderly consists of units of instructional content. The article focuses on the issue of the role of age characteristics in the realization of linguistic individuals, their sociopragmatic characteristics are highlighted.

Key words: *linguistic personality, pragmatic barrier, social role, social status, foreign words, old man's speech.*

References

- Гайбарян, О., Мясищев, Г. 2016. *Роль фактора «Социальная роль» при описании языковой личности // В мире искусства: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии.* №2 (57).
- Йўлдошев, М. 2009. *Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи.* Филол. фан. док. дисс. Тошкент.
- Караулов, Ю. Н. 2010. *Русский язык и языковая личность.* М.
- Раупова, Л. 2012. *Диалогик дискурсадаги полипредикатив бирликларнинг социопрагматик тадқиқи.* Фил. фан. док. дисс. автореф. Тошкент.
- Umurzakova, M. 2022. *The age factor in the formation a linguistic personality.* Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. Ussue 05, May 2022.
- Худойберганова, Д. 2013. *Матнинг антропоцентрик тадқиқи.* Тошкент.
- Шкуропацкая М.Г., Даваа Ундарма. 2015. *Национальная языковая картина мира как компонент языкового сознания русской и монгольской языковой личности (сопоставительный аспект) // Вестник Томского государственного университета. Филология.* №1(39).

Mental leksikonda so‘zlarning saqlanishi

Iqbol O‘razova¹

Abstrakt

Inson nutqiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini batafsil o‘rganish va bu boradagi ilmiy g‘oyalarning keyinchalik rivoji natijasida qo‘lga kiritilgan dalillar shundan guvohlik beradiki, insondagi leksikon nutqiy faoliyatni tashkillashtiruvchi asoslardan biri bo‘lib, tilning atributi hisoblanadi. Leksikon inson nutqiy faoliyatini yuzaga chiqaruvchi leksik komponent sifatida qaraladi. U til haqidagi ma‘lumot yig‘iladigan nafaol manbaa emas, nutqiy tajriba va uning mahsullarini qayta ishlovchi va tartibga soluvchi jarayonda doimiy aloqada bo‘lishi natijasida o‘z-o‘zidan harakatlanuvchi dinamik funksional sistemadir. Chunki nutqiy tajribada sistema doirasiga sig‘maydigan yangilik uning qayta qurilishiga olib keladi, sistemaning o‘zgarishga uchragan har bir holati navbatdagi qayta ishlovda qiyoslash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan ushbu maqola psixolingvistikaning dolzarb mavzularidan bo‘lmish mental leksikonda so‘zlarning saqlanishi haqida bo‘lib, maqolada o‘tkazilgan assotsiativ eksperiment natijalari tahlil etilib, tahlillar asosidagi xulosalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: *Mental leksikon, assotsiativ eksperiment, retsiptiyent, stimul so‘z, reaksiya, paradigmatic munosabat, sintagmatic munosabat, koordinatsiya munosabati, subordinatsiya munosabati, superordinatsiya munosabati, lemma.*

Kirish

Individ leksikoni talqiniga yondashuvlar tadrijiga nazar solsak bu boradagi izlanishlar psixolingvistika taraqqiyoti umumiy an‘analariga mos tarzda rivojlanishini kuzatish mumkin.

50-60-yillardagi psixolingvistik tadqiqotlarda leksikon haqidagi qarashlarning taraqqiy qilishiga ikki jihat samarali ta‘sir ko‘rsatdi. Ularning **birinchisi** – o‘sha davrda keng tarqalgan lingvistik konsepsiyalar bo‘lsa, **ikkinchisi** – Osgud va J.Diz g‘oyalari ta‘sirida shakllangan leksikonning ichki strukturasi aniqlash va

¹ *Markhabo E. Umurzakova* Doctor of Philosophy in Philology (PhD), Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

E-mail: umurzakovamarkhabo@gmail.com

ORCID ID : 0000-0001-5658-789X

For citation: Umurzakova, E. M. 2023. "Appearance of age characteristics in the linguistic personality of the character". *Uzbekistan: language and culture. Linguistics*. 2023-2: 44-56.